

*Dilshod MUVDINOV,*

*O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi, s.f.f.d, dotsent*

*O'zMU professori B.Tuychiyev taqrizi asosida*

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA MIGRATSIYANING SIYOSIY JARAYON VA MADANIYATGA TA'SIRI

Аннотация

Maqolada bugungi zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar va siyosiy madaniyatga ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri bu xalqaro migratsiya ko'rsatkichining yuksalib borishi va uning yashab turgan jamiyatlariga ta'siri natijasida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy muammolari o'rganilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, migratsiya, siyosiy madaniyat, siyosiy jarayon, "parochial", "civic", qutblanish, gomogenizatsiya va gibridlanish

## THE EFFECT OF MIGRATION ON THE POLITICAL PROCESS AND CULTURE UNDER GLOBALIZATION

Аннотация

В данной статье рассматриваются факторы влияющих на политические процессы и политическую культуру в современном мире, рост уровня международной миграции и социально-политические проблемы, возникающие в результате ее воздействия на общества.

**Ключевые слова:** глобализация, миграция, политическая культура, политический процесс, «parochial», «civic», поляризация, гомогенизация и гибридизация

## ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИИ НА ПОЛИТИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС И КУЛЬТУРУ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Annotation

The article deals with the factors influencing political processes and political culture in the modern world, the growth in the level of international migration and the socio-political problems that arise as a result of its impact on societies.

**Key words:** globalization, migration, political culture, political process, «parochial», «civic», polarization, homogenization and hybridization

**Kirish.** Globallashuv sharoitida dini, madaniyati, tili, etnik kelib chiqishi doirasidan turli xil bo'lgan insonlar jamoasi aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, davlatning tub aholisi va muhojirlar uchun boshpana vazifasini bajarayotgan davlatlar demokratiyaga asoslangan siyosiy muhit yaratishi, ikki qatlam uchun ham muvozanatni to'g'ri tatbiq etishi davlatlarning bugun duch kelayotgan siyosiy jarayonlaridagi tinch muhit yaratish masalasiga ma'lum bir yechim ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Chunki globallashuv davrida har bir shaxs alohida ahamiyat kasb etishni boshladi, shunday ekan, davlatlar aholisining ma'lum qismini tashkil etayotgan migrantlar masalasiga to'g'ri va odilona yechim qo'llash har bir davlatning vaqt o'tishi bilan kun masalasiga aylanmoqda. Shu bois, tadqiqotda migratsiyaning siyosiy jarayon va siyosiy madaniyatga ta'siri globallashuv davrida yanada oshib borayotganligi va bu orqaga qaytmas bir jarayon sifatida kelgusi yillarda ham dunyo hamjamiyatining va ilm doirasining diqqat markazidan joy egallashi tahlil qilingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Albatta, migratsiya haqida fikr yuritishdan avval unga sabab bo'lgan globallashuv va migratsiya ta'sir ko'rsatayotgan siyosiy jarayon va siyosiy madaniyat kabi terminlarga to'xtalmaslik mumkin emas. Tadqiqotchi Simon Reichning fikricha, "Globallashuv – insonlarni yashayotgan manzillaridan qat'iy nazar makon va zamon aniqroq qilib aytilganda umumiy g'oya va qarashlar ostida yashashidir". Olimga ko'ra, ikki qutbli dunyo atamasi o'z ahamiyatini yo'qota borishi bilan globallashuv jarayoni yanada tezlashdi [15]. Migratsiya tushunchasiga kelsak, Castles va Millerga ko'ra, "Bu ijtimoiy borliqning har bir jihatiga ta'sir etuvchi va o'zining murakkab dinamikasini rivojlantiruvchi jarayondir"[5]. Boswell va Geddes migrantlar uchun funktsional ta'rifni beradi: xalqaro migrant - bu o'z mamlakatidan tashqarida o'n ikki oy yoki undan ko'proq vaqt davomida yashayotgan kishi [4].

Endi ushbu migratsiya ta'sir ko'rsatayotgan siyosiy jarayonlar va siyosiy madaniyatga to'xtalsak. Siyosat haqida ko'plab fikrlar va tushunchalar mavjud bo'lsada bugungi asosiy mavzumiz odamlar jamoasi haqida ekan siyosatshunos Andrew Heywoodning ta'rifidan foydalanishimiz o'rindir. A. Heywoodga fikriga ko'ra, "Siyosat, keng ma'noda, odamlarning birgalikda yashashiga imkon beradigan umumiy qoidalarni yaratish, saqlash yoki o'zgartirish faoliyatidir".[6]

Jarayon esa dinamika, o'zgaruvchanlik va harakatni anglatadi. Tadqiqotchi P.Goncharovning fikricha, siyosiy jarayon tushunchasi, ya'ni siyosat sohasida sodir bo'layotgan jarayon, mavjud jamiyat siyosiy tizimining dinamik, harakatchan, doimiy o'zgaruvchanligining aks ettirilishidir [16]. Siyosiy jarayon o'zgarib turadigan faoliyatni ifodalaydi ekan ayni vaqtda bu o'zgaruvchanlikning sabablariga globallashuv va migratsiya oqimining faolligini ko'rsatishimiz mumkin.

Siyosiy madaniyatga Amerikalik sotsyolog Talcott Parsonsning fikri bilan qaraydigan bo'lsak, shaxslar harakatlarining motivlari, maqsadlari, vositalari va chegaralari asosan madaniy elementlar va madaniy tizim bilan belgilanadi. Insonlarning yashash tarzini, ularning harakatlarini bir-biridan ajratib turadigan xususiyat bu ularning turli xil madaniyatlarga sohibligidir. Shu sababli, ijtimoiy tizimdagi o'zaro ta'sirlarga madaniy tizim ta'sir qiladi va bu ikkisi bir-biriga ta'sir qilishda davom etadi.[14] Madaniy tizim ijtimoiy tizimga ta'sir qilar ekan buni migratsiya bilan bog'laydigan bo'lsak, bir hududdan boshqa hududga ko'chayotgan insonlar guruhi o'zlarining madaniyatlarini ko'chib kelgan hududda namoyon etadi va bu tub aholi madaniyati bilan qorishishni, ularning madaniyatiga ta'sir ko'rsatishni boshlaydi.

Siyosiy madaniyat namoyon bo'lishining asosiy to'rt mahalliy, milliy, ishtirokchi va fuqarolik turlari mavjudligini Almond va Verba "Fuqarolik madaniyati" asarida qayd etib o'tgan. Siyosiy madaniyatning "Parochial" (mahalliy) deb ataladigan shakli an'anaviy jamiyatlarda namoyon bo'lib unda insonlar siyosiy tizim haqida kam ma'lumotga ega bo'lganligi

sababli yuz berayotgan siyosiy voqealarga deyarli ta'sir ko'rsata olmaydi. Siyosiy madaniyatning "Subject" (millat, sub'ekt) shaklidagi tizimda odamlar siyosiy tizim haqida ma'lumotga ega lekin bu jarayonda ishtirok etishdan o'zlarini tiyadigan va davlatni birinchi o'ringa qo'yadigan holat namoyon bo'ladi. "Participant" (ishtirokchi) siyosiy madaniyat esa, fuqarolik birinchi o'ringa chiqadi va odamlar siyosiy tizimni shakllantirishda faol ishtirok etadilar. Jamiyatda demokratiya hukm surgan va hukumat boshqaruvini xalqning xohish istaklari asosida olib boradigan davlatlarda "Civic" (fuqarolik) madaniyati shakllarini ko'rishimiz mumkin. Barqaror va demokratik hukumatning eng mashhur namunasi sifatida Angliya va Amerika siyosiy madaniyatini misol keltirishimiz mumkin.

Davlatlardagi va jamiyatlar hayotidagi siyosiy madaniyatlardagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatayotgan omil sifatida globallashtirish va migratsiyani keltirar ekanmiz, migrantlarning yashayotgan manzillaridagi siyosiy jarayonlari – siyosiy tizimdagi faoliyati / ishtirokini baholashni aynan Almond va Verbaning fikrlari asosida davom ettirishimiz o'rinlidir. Migrantlarning asosiy manzillaridan biri bo'lgan Osiyo davlatlarida migrantlarning siyosiy tizimdagi ishtiroki qoniqarli darajada emas, shuning uchun siyosiy jarayon va siyosiy madaniyatga ta'siri ham sezilarli emas. Chunki bu qitadagi davlatlar siyosiy madaniyatning "parochial" (mahalliy) va "subject" (millat) ko'rinishlariga ega shuning uchun bu mintaqadagi immigranlar ham siyosiy madaniyatning "parochial" va "subject" darajasini namoyon qiladi. Aksincha, migrantlarning siyosiy ishtiroki yuqori bo'lgan Yevropa va Shimoliy Amerika mintaqasida "participant" (ishtirokchi) va "civic" (fuqarolik) siyosiy madaniyati hukmron va shu bois, immigranlarning siyosiy madaniyatga ta'siri ham Osiyo davlatlaridan ancha yuqoridir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Globallashtirish davrida migratsiyaning siyosiy jarayonlarga va siyosiy madaniyatga ta'siri Qutblanish, Gomogenizatsiya va Gibridlanish kabi nazariyalar ostida o'rganishimiz mumkin. Qutblanish tushunchasi global ishonchsizlik bilan tavsirlanadigan madaniyatlar o'rtasidagi ziddiyatning asosiy nuqtasini tashkil qiladi. Ushbu nazariya, madaniyatlar o'ziga xosligi siyosiy hamkorlikda bag'rikenglikdan ko'ra, sivilizatsiyalar to'qnashuvi bilan bog'liq global ishonchsizlik haqida bahs yuritadi. Samuel Huntingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" (The Clash of Civilizations) asari qutblanish nazariyasining eng mashhur asarlaridan biri hisoblandi. Huntington ushbu asarida, "Sovuq urush"ning tugashi bilan dunyodagi yuzaga keladigan vaziyatlar siyosiy yoki iqtisodiy sohalarida emas balki madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlar tufayli madaniy urushlar va hatto "global Sivilizatsiya urushi"ga olib kelishi mumkinligini qayd etib o'tgan.[8]

Gomogenizatsiya – umumiy etilgan e'tiqod, yani ko'pchilik tomonidan maqullangan, odamlar tomonidan ideal deb qaralgan yashash tarziga yoki madaniyatlarga yaqinlashishni anglatadi. Bunda asosan Amerika madaniyatining gomodenlashuvi ilgari suriladi yani boshqa madaniyatga ega insonlar orasida ham amerikancha kiyinish, ovqatlanish, amerika filmlarining yoyilishi[13] va bugun biz ommaviy madaniyat deya nomlayotgan, ko'plab odamlar guruhi tomonidan ma'lum manoda ijobiy qabul qilinayotgan, bunday yashash tarzining asosiy tashuvchilari bu migrantlardir.

Gibridlanish nazariyasida globalizatsiya natijasida faqat bitta madaniyat hukm surishi imkonsiz shuning uchun tub aholi va migrantlar olib kelgan madaniyat qorishib yangi uchunchi madaniyat vujudga kelishiga ishoniladi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, 1990-yillardan kapital, tovar-xizmat va ishchi kuchining davlatlarga kirib kelishi avvalgidan sezilarli darajada oshdi. Globallashtirish dinamik tushuncha sifatida siyosatda, iqtisodda va madaniyatda katta ahamiyat kasb etishi boshladi ayniqsa, xalqaro migratsiya ko'rsatkichiga sezilarli ta'sir qilganini Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha Aholi departamenti (UNDESA) tomonidan e'lon qilingan Xalqaro migratsiya hisoboti ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin: 1990 yilda dunyoda 152,97 million kishi migratsiyani boshdan kechirgan, bu ko'rsatkich 2000 yilda 172,7, 2017 yilda 257,8 va 2021 yilda 280.58 million kishiga yetdi va bu raqamlar bugungi kunda tez suratlar bilan o'sib bormoqda [12].

Migrantlar uchun asosiy boshpana vazifasini bajarayotgan hududlar Yevropa va Osiyo qitasi hisoblanadi. Lekin, 2011-yilda boshlangan Yaqin Sharqdagi urushlar va 2022-yilda Rossiyaning Ukrainaga hujumi natijasida bugun Yevropa qit'asi Osiyo davlatlariga nisbatan ko'plab muhojirlarning manziliga aylanmoqda.

Dunyo aholisi 8 mlrd.dan oshdi va 2050-yilga borib 9.5-10 mlrd.ga borishi taxmin qilinmoqda, buni inobatga oladigan bo'lsak, 2050-yilga borib xalqaro immigranlar[1] soni 1 mlrd.ga yetishi mumkin va bu raqamlardan anglashiladiki turli siyosiy, madaniy, iqtisodiy jarayonlarni bo'shidan kechirayotgan davlatlar uchun migrantlar asosiy masalaga aylanadi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan malumotlar, qarashlar asosida migrantlarning siyosiy faoliyati yoki ishtiroki va davlatlarning tub aholisi bilan munosabatiga to'xtalsak.

Siyosiy faoliyat yoki ishtirok S.Verba va N.H. Nie (1972) yozganidek, ijtimoiy guruhlar va shaxslar mavjud ijtimoiy-iqtisodiy yoki siyosiy tartib va siyosiy institutlarning o'zgarish istagi bilan bog'liq holda, o'z ehtiyojlari va manfaatlarini shakllantirish va ifodalash faoliyati deb tushuniladi. Shunga ko'ra, migrantlarning mumkin bo'lgan siyosiy faoliyati shakllarini saylovchi va saylanuvchilar sifatida saylovlarda ishtirok etish, mitinglar, siyosiy partiyalar va boshqa siyosiy va nodavlat tashkilotlarga a'zolik, ish faoliyatlarida davlatning tub aholisi kabi erkin ish tashlashlar va boshqa harakatlarda qatnashish kabi shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin [10]. Migrantlarning yangi hududlaridagi siyosiy ishtiroki va faoliyatini qandayligini baholaydigan bo'lsak, asosan demokratik jamiyat va "participant" (ishtirokchi) - "civic" (fuqarolik) siyosiy madaniyatiga ega davlatlarda immigranlar siyosiy faol bo'lishi kutiladi.

Bu jarayon siyosiy sotsializatsiya yoki siyosiy ijtimoiylashuv doirasida o'rganilmoqda. Siyosiy sotsializatsiya shaxslarning migratsiyani amalga oshirgan mamlakatlarining siyosiy hayotiga moslashishi va televideniya orqali oldingi avlodlar qadriyatlarini haqida ma'lumot olishi va qabul qilishni o'z ichiga oladi. Turli xil madaniyatlarga ega bo'lgan insonlar bir manzilda yashashga va bu o'zaro baham ko'rgan qadriyatlar, ramzlar va me'yorlar tufayli bir-birlaridan ajralib turishga muvaffaq bo'lishadi. Bu qadriyatlar siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida tez sodir bo'ladigan holat emas bunga erishish uchun malum vaqt kerak bo'ladi.

Albatta, siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni oiladan boshlanadi chunki birinchi navbatda bola tarbiya va qadriyatlarini oiladan nima ekanligini o'rganadi. Keyingi ya'ni ma'lum yoshga yetganida oila bilan bir qatorda maktab, atrofidagi do'stlari, ijtimoiy hayot, ommaviy axborot vositalari diniy va madaniy muassasa soha faoliyatlarini insonlarni har tomonlama

shakllantiradigan omil bo'lib hizmat qiladi. Bundan anglashiladiki, siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni inson umri oxirigacha davom etadigan jarayon. Shunday ekan, immigrantlarning siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni qanday kechmoqda degan savol ko'plab tadqiqot markazlari, soha mutasaddilari, siyosatchilarning diqqat markazidan joy olgan. Misol tariqasida Pew Research Centerning 2011-yilgi tadqiqotida immigrant fuqarolar siyosiy ishtirok etishning har qanday shaklidan chetda qolish ehtimoli ko'proq deb ma'lum qilganini, biroq shu bilan birga, tadqiqotchilar M. Humphries, C. Muller, K.S. Schiller immigrant bolalar uchun siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni aksincha ular yaxshi ta'lim olgan, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish uchun ma'lum siyosiy bilimlarga ega bo'lsalar 1-chi, 2-chi avlod immigrant bolalar ba'zi holatlarda tub aholining bolalariga nisbatan faolroq bo'lgan holatlar ham kuzatilganini va kuzatilishini ilgari suradi [7].

Shu bilan birga, immigrantlar soning ko'payishi bilan geterogen etnik guruh, madaniyat va jamiyatlarning shakllanishi ham siyosiy jarayon va siyosiy madaniyatga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi sababli migrantlar masalasi o'rganilayotgan asosiy masalalardan biriga aylangan. Yevropa va Shimoliy Amerika eng ko'p munozara markaziga aylangan mintaqalar hisoblanadi chunki, 2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, Osiyoda 4,561 mlrd. inson yashaydi va shundan 2 foizigina immigrant hisoblanadi, Yevropada 746,4 mln. inson yashaydi va 11,5 foizi yoki har 9 odamdan biri immigrant hisoblanadi. Shimoliy Amerika qit'asida esa 579 mln. inson yashaydi va 10 foizi yoki 10 insondan biri immigrant hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlardan Yevropa va Shimoliy Amerikada geterogen etnik guruh va madaniy jamiyatlarning sezilarli ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, Yevropa va Shimoliy Amerikada immigratsiya siyosiy lashib, ba'zi holatlarda sekyuritizatsiyalashmoqda. Kostakopoulou ta'kidlaganidek, immigratsiya siyosati yuqori siyosat masalasidir, ya'ni milliy suverenitet va milliylik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir [11].

Yevropa va Shimoliy Amerikada siyosatchilar va jamiyat faollari tomonidan "speech act" (nutuq akti) qilishi va olimlar tomonidan migratsiya oqimining ko'pligi va "participant" madaniyat va siyosiy ishtirokning yuqoriligi, immigrantlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot va siyosiy madaniyatga ta'sirini o'rganish avvalgidan ko'proq rivojlandi. Bu "speech act" va tadqiqotlar doirasida saylovlarda muhojirlarga qarshi partiyalarni qo'llab-quvvatlashga da'vatlar, migrantlar bilan birga turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va begona qadriyatlar kirib kelishi va boshqa mavzular ilgari suriladi. Bulardan kelib chiqib shunday fikrga kelishimiz mumkinki, immigratsiyaning o'sishi mahalliy aholining noroziligiga sabab bo'ladi, immigratsiyaga qarshi, populistik, o'ta o'ng va konservativ partiyalarning qo'llab-quvvatlashni kuchayishiga olib keladi [1].

Tadqiqotchilar Alesina A. va Tabellini M. tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy aholining noroziligida madaniy omillar iqtisodiy omillardan yuqori ahamiyat kasb etadi. Sababi tadqiqotchilarga ko'ra, immigrantlar bilan mahalliy aholi o'rtasida etnik, irqiy, madaniy jihatdan farqlar bor va bu farqlar ko'proq noroziliklarga olib keladi, boshqa tomondan mahalliy aholida immigrantlar soni nihoyatda ko'p va ular kambag'al, ma'lumoti past va madaniy jihatdan ularga yaqin emasligiga ishonuvchi noto'g'ri qarashlar mavjud va bu qarashlar o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bunday noto'g'ri tushunchalar migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning qadriyatlarini va me'yorlariga tahdid sifatida tasvirlaydigan siyosiy targ'ibot ritorikasidan kelib chiqadi. Lekin immigratsiya iqtisodiy jihatdan foydali bo'lgan va mahalliy aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilagan holatlar kuztilsa ham siyosiy qarama-qarshilik paydo bo'lmoqda [2].

Globallashuv ta'sirida global miqyosda siyosiy madaniyatning o'zgarishi soha olimlari, siyosatshunos va sotsiologlarning diqqat markazidagi masala hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, globallashuv va texnologiyalarning tez suratlar bilan rivojlanib borishi bilan ommaviy xulq-atvorning yoyilishi va siyosiy madaniyatda o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bu borada muhim tadqiqotlar olib borgan Ronald Inglehart "Madaniy o'zgarishlar" sohasida, demokratiya insonlarga berayotgan imkoniyatlar haqida so'z yuritadi. Bunga ko'ra, o'z-o'zini anglash va ishtirok etish qadriyatlarini yoshlar orasida keng tarqalgan bo'lsa, kekxa odamlar xavfsizlik va tartib kabi qadriyatlarga urg'u beradi va ularga ahamiyat qaratadi [9]. Agar yoshlar iqtisodiy tomondan qiyinchilikka duch kelmasa migratsiyaga unchalik e'tibor qartishmaydi aksincha yoshi kattalar buni o'zlarining madaniyati, qadriyatlarini va tartib-tamoyillari uchun xavf va muammo deb baholamoqda [3].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qiladigan bo'lsak, globallashuv davrida siyosiy jarayon va siyosiy madaniyatga migratsiyaning ta'siri sezilarli ortib bormoqda. Biz yuqorida keltirgan va yana boshqa ko'plab tadqiqotlarda o'zining isbotini topmoqda. Migratsiyaning siyosiy jarayon va siyosiy madaniyatga ta'siri siyosiy madaniyat va siyosiy sotsiyaliziya doirasida, globallashuv bilan birgalikda madaniyatlardagi qutblanish, gomogenizatsiya va gibridlanish siyosiy faoliyat va siyosiy ishtirok kabi o'zgarishlar doirasida o'rganilmoqda va tadqiq qilinmoqda. Bu o'rganishlar "participant" (ishtirokchi) - "civic" (fuqarolik) siyosiy madaniyatiga ega davlatlarda immigrantlarning siyosiy faol bo'lish imkoniyatlari ko'proq va shu bilan birga, siyosiy madaniyatga ta'sir qilish imkoniyatlari ham yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi. Biroq siyosiy madaniyati "parochial" (mahalliy) va "subject" (millat) bo'lgan jamiyatlar va mamlakatlarda immigrantlarning sekin integratsiyalashuvi va bu jamiyatlarning siyosiy tizimiga ta'siri ham past darajada qolayotganligini sababli ular yashash tarzining yaxshi ko'rinishiga ega emas, huquqiy jihatdan qoniqarli ko'rsatkich qayd etmaganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Xalqaro immigrant bir davlatda tug'ilib, boshqa bir davlatda yashaydigan (o'qish, ish va hakozi) yoki butunlay ko'chib ketgan shaxs va guruhlar.
2. Abramitzky Ran and Leah P. Boustan, "Immigration in American Economic History," *Journal of Economic Literature*, 55 (4), 2017, pp. 1311–1345.
3. Alesina A. and Tabellini M. "The Political Effects of Immigration: Culture or Economics?," May 2022, [https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/Alesina%20and%20Tabellini\\_May2022\\_6e374744-f5f7-4ed0-9387-d0ac7cf087ff.pdf](https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/Alesina%20and%20Tabellini_May2022_6e374744-f5f7-4ed0-9387-d0ac7cf087ff.pdf)

4. Berry J. W. Immigration, Acculturation and Adaptation. *Applied Psychology*, 46(1), 1997, pp. 5-34; Berry J. W., "Acculturation: Living Successfully in Two Cultures". *International Journal of Intercultural Relations*, 29, 2005, pp. 697-712.
5. Boswell C. and Geddes A. *Migration and Mobility in the European Union*. Hampshire: Palgrave MacMillan, 2011, p. 2.
6. Castles S. and Miller M. J., *The Age of Migration*, McMillan, London, 1998, p. 30.
7. Heywood A. *Politics: What is Politics?* Bloomsbury Academic, 5th edition, 2019, p. 33-35.
8. Humphries M., Muller C., Schiller K.S. "The Political Socialization of Adolescent Children of Immigrants". *Soc Sci Q.* 2013 Dec. 1; 94(5):1261-1282.
9. Huntington, Samuel P., *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York, Simon & Schuster, 1996.
10. Inglehart R. and Welzel C., *Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence*, Cambridge University Press; Illustrated edition, 2005, 344 p.; Inglehart R. F., Ponarin E., & Inglehart R. C. "Cultural change, slow and fast: The distinctive trajectory of norms governing gender equality and sexual orientation". *Social Forces*, 95(4), 2017, pp. 1313-1340.
11. Iqtibas manbasi: Франц В. А. Влияние различных форм политической активности мигрантов на уровень национальной безопасности, 2017. – С. 25. // [https://clar.urfu.ru/bitstream/10995/55520/1/978-5-7996-2231-2\\_007.pdf](https://clar.urfu.ru/bitstream/10995/55520/1/978-5-7996-2231-2_007.pdf)
12. Kostakopoulou T., *Security Interests. Police and Judicial Cooperation*. In Peterson & Shackleton (eds.). *The Institutions of the European Union*. 2 nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2006, p. 232.
13. McAuliffe M. and A. Triandafyllidou (eds.), *World Migration Report 2022*. International Organization for Migration (IOM), Geneva, 2021, p. xii-xiii.
14. Ritzer G. *The McDonaldisation of Society*. London: Thousand Oaks, Pine Forge Press, 1993, p. 19; Holton, 2000, p. 142.
15. Schmid M. "The concept of culture and its place within a theory of social Action: A critique of Talcott Parsons's theory of culture", *Revista Colombiana de Sociología*, 2007, pp. 88-120.
16. Simon Reich, *What Is Globalization? Four Possible Answers*, Working Paper #261 – December 1998, [https://kellogg.nd.edu/sites/default/files/old\\_files/documents/261.pdf](https://kellogg.nd.edu/sites/default/files/old_files/documents/261.pdf)
17. Гончаров П. К., Политический процесс: сущность и содержание. *Журнал, Социально-гуманитарные знания*, 2018, – С. 78.